



# FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

Usarov Jabbor Eshbekovich

CHDPU, professori,  
Email: jabborusarov68@gmail.com,  
Tel nomer: +99890/9256800

## BO'LAJAK O'QITUVCHINING INNOVASION FAOLIYAT KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYALARI

**Annotatsiya.** Pedagoglarning kasbiy faoliyatini boshqarishning zamonaviy strategiyalari ustoz-shogird an'analari, innovasion faoliyat kompetensiyasining shakllanganlik darajasi, ta'lim jarayonidagi tez o'zgaruvchan yondashuvlar talqini, zamonaviy o'qituvchiga qo'yilayotgan talablar, kasbiy faoliyat kompetentlikni baholovchi komponentlari hamda uni rivojlantirish tendensiyalariga bog'liq. Maqolada ushbu masala yuzasidan fikr yuritiladi.

**Калит сўзлар.** Kasbiy faoliyat, innovasion faoliyat, strategiy, kompetensiya, ta'lim jarayoni, baholovchi komponentlar, rivojlantirish tendensiyalari.

## СТРАТЕГИИ РАЗВИТИЯ КОМПЕТЕНТНОСТИ ИННОВАЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ БУДУЩЕГО УЧИТЕЛЯ

**Аннотация.** Современные стратегии управления профессиональной деятельностью педагогов зависит от традиций педагога и ученика, уровня сформированности инновационной компетентности, интерпретации быстро меняющихся подходов в образовательном процессе, требований, предъявляемых к современному педагогу, компонентов профессиональной деятельности, оценивающих компетентность и тенденции ее развития. В статье рассматривается этот вопрос.

**Ключевые слова.** Профессиональная деятельность, инновационная деятельность, стратегия, компетентность, образовательный процесс, компоненты оценки, тенденции развития.

***STRATEGIES AND INNOVATION ACTIVITIES OF A FUTURE  
TEACHER TO DEVELOP COMPETENCIES***

**Annotation.** Modern strategies for managing the professional activities of teachers depend on the traditions of the teacher and student, the level of formation of innovative competence, the interpretation of rapidly changing approaches in the educational process, the requirements for a modern teacher, the components of professional activity that assess competence and trends in its development. This article addresses this issue.

**Keywords.** Professional activity, innovative activity, strategy, competence, educational process, assessment components, development trends.

**Kirish.** Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy amaliyotidagi innovasion yondashuvlari ustoz-shogird an'alaridagi faoliyat kompetentligini rivojlantirishning strategiyalari sifatida bugungi kunda nimalarni ko'rsatish mumkin, bu borada qanday muammolar mavjud hamda ularning qanday innovasion yondashuvlari mavjud? Mazkur masala nazarimizda ta'lim jarayoniga tez o'zgaruvchan, innovasion yondashuvlar talqini, zamonaviy o'qituvchiga qo'yilayotgan talablar, kasbiy faoliyat kompetentlikni baholovchi komponentlari va uni rivojlantirish tendensiyalari hamda dinamikasiga bog'liq.

Yuqoridagi yondashuvlarning ilmiy-metodik yechimlari, ularga bo'lgan ijtimoiy munosabatlar, olingan amaliy natijalar, olib borilayotgan ilmiy-tadqiqot ishlari hamda olimlar tomonidan bildirilayotgan ilmiy bashoratlar, qarashlarning tahlili asosida bugungi ta'lim samaradorligi, talabalarni o'quv faoliyatiga samarali yo'naltirishga qo'yilgan muammo va uning yechimlariga bo'lgan munosabatlarning muhimligini asoslaydi.

Ikkinchi Butunjahon konferensiyasining ochilish marosimida Prezident Shavkat Mirziyoyev, yurtimizda Uchinchi Renessansni barpo etish masalasini strategik vazifa sifatida oldimizga qo'yilganligi, barcha ta'lim bosqichlari: bog'cha tarbiyachisi, maktab muallimi, professor-o'qituvchilar va ilmiy-ijodiy ziyolilarimizni yangi Uyg'onish davrining to'rt tayanch ustuni, deb hisoblash mumkinligini ta'kidlagan edi[1]. O'qituvchilarning tayanch sifatida turishlari uchun, ulardan zamonaviy yoshlarni raqobatbardosh kadr sifatida tarbiyalash vazifasini a'lo darajada bajarishlari kerak bo'ladi. Buning uchun esa, ta'limdagi innovasion yondashuvlar, ya'ni ta'lim klasteri muhitini yaratish, tahsil olayotgan talabalarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda nafaqat oliy ta'lim muassasasi, balki butun bir jamiyat manfaatli hamkorligini ta'minlash kerak bo'ladi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Ayniqsa, bugungi glabollashuv davrida mehnat bozorini egallash va ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar bozorini ta'minlash

maqsadida har qanday muassasa, xoh ishlab chiqarish, xoh loyihalashtiruvchi, xoh ta'lim-tarbiya muassasasi bo'lmasin, o'zining jamoasi safida yetuk mutaxassislarni faoliyat yuritishidan manfaatdordir[6]. Buni ta'minlash uchun oliy ta'lim muassasalarida bo'lg'usi kadrlarini tayyorlash jarayonidagi e'tibor qaratish lozim bo'lgan bir qator masalalar mavjud. Z.R.Isaqovning ta'biri bilan aytganda, talabalarning rivojlanish davrda yoshlar ham jismoniy, ham aqliy, ham ma'naviy, ham huquqiy, ham ijtimoiy, ham siyosiy jihatdan kamolga yetadilar, hayot ma'nosini chuqurroq, anglaydilar, jamiyatda o'z o'rnilarini topish yo'lida izlanadilar. Bu davrda yoshlar ongida yuksak ideallar uchun faol kurashchining xususiyatlari shakllanadi, tajribasi ortadi[5].

N.Mamadaliyevaning qarashlarida esa, shaxsni tarbiyalash tizimi innovatsion axborot mahsulotlarini ishlab chiqish, ta'lim sifati va uzluksizligini ta'minlash hamda pedagogik kadrlarning malakasiga bog'liq bo'ladi. Shaxsni mustaqil ta'limga yo'naltirish, kasbiy faoliyat natijadorligi uchun talabalarning ta'lim olish trayektoriyasini belgilab berish borasida turli xil ilmiy-nazariy qarashlar ilgari surilib, ilmiy tadqiqot natijalari bo'yicha bir qator ishlar e'lon qilinganini kuzatishimiz mumkin[8]. Xususan, kasbiy faoliyat kompetentligini rivojlantirishga qaratilgan ta'lim texnologiyalari zamonaviy ta'limning mazmunini tashkil etmoqda.

Tadqiqotchi S.A. Haydarovning fikricha, "ta'lim jarayoniga yangicha yondashish, uni didaktik jihatdan ta'minlash, ta'lim mazmunini takomillashtirishda o'quvchilarning tafakkurini boyitish milliy ta'lim tizimining dolzarb muammolaridan biridir"[10]. Bu xususida professor B.S.Abdullayeva "...o'qituvchi ta'lim-tarbiya jarayonining asosiy shaxsi bo'lgan holda nafaqat ma'lum bir kasbiy ko'nikmaga ega bo'lishi, balki zamonaviy jamiyatning tobora ortib borayotgan talablariga javob beradigan kasbiy va shaxsiy sifatlar majmuiga ega bo'lishi kerak" deb ta'kidlaydi[2].

Pedagogikaga oid manbalarda, antroposentrizm pedagogikasiga nisbatan talabalarning kasbiy faoliyat kompetentligini rivojlantirishning asosiy mezon sifatida talaba o'zini o'zi anglashi, ongli faoliyatni amalga oshirishi, o'zini o'zi rivojlantirishga bo'lgan ehtiyojlarini real imkoniyatlardan kelib chiqqan holda ilmiy munosabatlar doirasidagi yondashuvini nazarda tutadi[9]. Ta'limdagi zamonaviy strategiya sifatida bir qator O'zbekistonlik olim va tadqiqotchilar pedagogik ta'lim innovasion klasteri g'oyasini ilgari surishadi. Ularning fikricha ta'lim klasteri manfaatdor tomonlarning hamkorlik pedagogikasi bo'lib, uzluksiz ta'limni ta'minlovchi samarador hamkorlik asosida faoliyat olib boradi[7]. Bu kabi g'oyalarni xorijlik olimlarning ilmiy izlanishlarlarida ham kuzatish mumkin[4]. Shuningdek, talabalarning kasbiy faoliyat kompetentlikni rivojlantirishda mutaxassisliklar uchun o'zgarmas va o'zgaruvchan komponentning muvofiqligi haqida to'xtalib o'tganlar.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Avvalo bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy faoliyat kompetentligini rivojlantirish strategiyalarini belgilashda qay darajada ahamiyat kasb etishi xususida fikr yuritsak. Umumta’lim, mutaxassislik va faoliyatga oid o‘quv fanlarining tutashgan joyida paydo bo‘ladigan, ta’limning metodik apparati kontekstida ramziy almashinuvni ta’minlaydigan, ijtimoiy-ilmiy yo‘nalishdagi olingan ma’lumotlarning fundamental asosi sifatida qabul qilinadi. Shu ma’noda, amaliy yo‘nalish madaniyati jamiyat rivojlanishining ijtimoiy-madaniy jarayonlarni prognozlash, loyihalash va o‘zgartirish imkonini beradi, deb hisoblash mumkin.

Zamonaviy o‘qituvchi qanday bo‘lishi kerak? Uning innovasion faoliyat kompetentligini rivojlantirishda nimalarga e’tibor qaratish kerak. Ko‘pincha maktabda yoki oliy ta’lim muassasalarida ta’limning samarasizligidan shikoyat qiladilar, olingan bilimlar sayoz va ular hayotda mutlaqo keraksiz deb hisoblaydilar. Haqiqat shundaki, zamonaviy ta’lim, avvalambor, tayyor bilimlarni bermaydi balki bilim olishni o‘rgatadi ya’ni, bilim olishga, o‘zlarning ta’lim trayektoriyasini belgilab olishlariga yo‘naltiradi. Bu tendensiya ta’lim oluvchilarni standart qolipda o‘qitish emas, ularni o‘qiy olishga o‘rgatish ya’ni, mustaqil ta’lim olish ko‘nikmasini shakllantirishdan iboratdir. Bu ayni paytda ta’lim oluvchilarning o‘z-o‘zini rivojlantirish, tarbiyalash va baholashlari uchun asos bo‘ladi. Bugungi pedagogdan talab qilinayotgan narsa esa, pedagogik ta’limning innovasion yondashuvlaridan xabardor bo‘lish hamda ulardan samarali foydalana olish ko‘nikmalaridir. Ta’kidlanayotgan ko‘nikmalar bevosita ta’lim sub’yektlari (o‘quvchi, o‘qituvchi, ota-ona, ta’lim muassasasalari, mahalla) ularning funksional vazifalari uzviyligi, o‘zgarish va rivojlanish qonuniyatlari hamda ijtimoiy talablarning jadallashish intervali ya’ni, ta’lim jarayonining shaxs va jamiyat rivojlanishidagi muqobil kompensatsiyasini ta’minlay olish imkoniyati bilan bog‘liq. Mazkur imkoniyatlarni ilmiy prognoz qilish hamda amaliy natijalarini ko‘ra bilish kabi kompetensiyalarga ega bo‘lish uchun esa, ta’lim jarayonida talabalarni kasbiy faoliyatga yo‘naltirishga qaratilgan loyihalar muhim rol o‘ynaydi.

**Taxlil va natijalar.** Kasbiy faoliyat kompetentligining zamonaviy komponentlari qanday? Pedagoglarga qo‘yilayotgan bugungi kundagi zamonaviy talablar, kasbiy kompetensiyalar tushunchasi bilan izohlanmoqda va amaliyatda keng qo‘llanilmoqda. Kasbiy kompetentlik deganda, kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarning amalda, pedagogik faoliyatida hamda hayotiy zarurlatlarda yuqori darajada qo‘llay olishi nazarda tutiladi.

Kasbiy kompetentlik mustaqil faoliyat asosida integrativ bilim va harakatlarni o‘zlashtirish, muhim ijtimoiy talablarni anglay olish, kasbiy-pedagogik vazifalarga kreativ munosabat, ta’lim-tarbiya jarayoni samaradorligini oshirishga doir yangi g‘oyalarni ilgari surish, pedagogik yoki hayotiy nizolarda oqilona qaror qabul qilish kabi sifatlarga sinonimdir. Bugungi kunda oliy ta’lim muassasalaridagi pedagoglarning

kasbiy faoliyat kompetentligi ta'lim sub'yektlari hamkorligini ta'minlash asosiga qurilishi, ya'ni faqatgina shaxsiy-kasbiy fazilatlari majmuasidan iborat bo'lib qolmasdan balki, ta'lim oluvchilarning iste'molchi talablariga mosligi, uning kelajak faoliyatidagi shaxsiy o'sishi hamda atrof muhit ta'siriga psixologik barqarorligini ta'minlovchi muhitni ham yaratishni taqazo qilmoqda. Shu o'rinda Chirchiq davlat pedagogika universiteti tajribasi sifatida pedagogik ta'lim innovasion klasteri, uning asosiy komponentlarini shartli ravishda "Maktab laboratoriya", "Inklyuziv ta'lim", "Aralash ta'lim", "Mobillik", "Talabalar bandligi", "Jozibadorlik", "Ilmiy-uslubiy tadqiqot" hamda "Tarbiya klasteri" kabilarga ajratish mumkin. Masalan, "Maktab laboratoriya" ya'ni, umumta'lim maktablarida maktab laboratoriyasini tashkil etilish, maktabdagi metodikaga oid mavjud muammoni o'rganish va bartaraf etish yo'llarini ilmiy jihatdan tahlil etish, bo'lajak pedagoglarning individual kasbiy rivojlanish dasturi asosida pedagogik faoliyatga ta'sir o'tkazish maqsadida tashkil etiladi. Bunda, "bugungi o'quvchi-ertaga talaba va pedagog", "mening bilganim hamma uchun" kabi tamoyillar asosida talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlash maqsadga muvofiq.

"Talabalar bandligi" komponentida oliy ta'lim muassasalarini bitirgan talabalarning ish bilan ta'minlanishi bilan belgilanmasligi kerak. Talabalarning kelajak faoliyatidagi pedagogik kompetentligi, ilmiy-uslubiy salohiyatda raqobatbardoshligini ta'minlash uchun o'qish davridagi bandligi nazarda tutiladi. Bunda talabalarni turli ijtimoiy-metodik loyihalarga jalb qilish asosidagi "harakat-faoliyat belgisi", "kechagi metod bugun yangi emas" tamoyillarida amalga oshirilishi mumkin.

"Mobillik" komponenti esa, ta'lim oluvchining individual qobiliyatini kelajak faoliyatiga tezkor moslashni nazarda tutadi. Bunda bolalarning bog'chaga va maktabga tez moslashishi, talabalarning oliy ta'lim muassasalariga va kelajak kasbiy faoliyatiga tez moslashishini ta'minlovchi "kelajak uchun bugun moslash"; "bir qadam oldinda" kabi tamoyillar asosida pedagogik-psixologik tadqiqotlar olib boriladi.

Mazkur komponentlar o'zaro uzviy bo'lib, uzluksiz ta'lim jarayonini tashkil etish va baholashning me'zoni bo'la oladi. Sababi, dunyo ta'lim tendensiyalari shaxsga yo'naltirilgan ta'lim tamoyillarini qo'llab-quvvatlamogda.

Kasbiy faoliyat kompetentligini qanday rivojlantirish mumkin? Pedagog kadrlarning kasbiy faoliyat kompetentligini rivojlantirishda uning mazmuni, yo'nalishlari va bosqichlari, pedagogik kompetentlik potentsiali va undan foydalanish shartlari, o'quv jarayonida boshqaruv (ta'lim menejmenti) va pedagog kadrlarning maslahatchi (mentor) sifatida namoyon bo'lishligi hamda o'qituvchi kompetensiyasi piramidasiga alohida e'tibor qaratish lozim. Bunda kompetentlik tushunchasi u yoki bu sohadagi bilimlar, tajribalarga egalik ("O'zbekiston milliy ensiklopediyasi"), muayyan ijtimoiy kasbiy mavqega ega shaxslarning hal etayotgan muammolarning murakkablik darajasiga bilimlari, layoqatlari va tajribalarining mos kelganlik darajasi

(“Oliy ta’lim” lug‘at-ma’lumotnomasi) yoki tashabbus, hamkorlik, guruhda ishlay bilish qobiliyati, kommunikativ va baholash uquvi, mantiqiy fikrlash kabi pedagogning sifatlarini nazarda tutadi. Shuningdek, doimo rivojlanib boruvchi, real hayotiy vaziyatlarda yuzaga kelgan muammolarga ilmiy-amaliy yechim topa olishi, aniq maqsad yo‘lidagi amaliy faoliyati natijalari kabi xususiyatlari pedagogning kompetentlik talablarini belgilaydi.

**Xulosa va takliflar.** Uning rivojlantirish bosqichlarini ta’lim oluvchining kasbiy bilimlar asoslarini o‘zlashtirish davri nazariy bilimlarni o‘quv-amaliy mashg‘ulotlarda, kasbiy yo‘naltirilgan kichik talabalar loyihalari, “ustoz-shogird”, “talaba talabaga ustoz” tamoyillari, mustaqil ravishda kasbiy faoliyat tashkil etishga yo‘naltiradigan individual ta’lim tartiblarini joriy etish bosqichlarida amalga oshiriladi. Talabalarning individual ta’lim tartibini joriy etish bosqichlari esa, ularning pedagogik psixologik portretini aniqlash ya’ni, diagnostika asosida talabalarni shartli ravishda 3 ta katta guruhga bo‘lib olinadi: tadqiqotchi, uslubchi hamda ishlab chiqarishga yo‘nalgan talabalar. Shu asosda talabalarning individual ta’lim trayektoriyasi shakllantiriladi. Xususan, uslubchi talaba o‘rganuvchi, o‘zlashtiruvchi va bajaruvchi xususiyatlarga ega bo‘lishi lozim. Standart-uslubchi talaba kelajakda kasbiy karyerasini ta’lim muassasalaridagi faoliyati bilan bog‘lashiga ustuvorlik beriladi. Bu esa ayni paytda harakatchan, tashabbuskor, kreativ hamda o‘zini o‘zi tanqidiy baholash kompetentligiga ega mutaxassislarini tayyorlash imkoniyatini yaratadi.

Individual yo‘naltirilgan ta’lim avvalo, ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchilarning yagona maqsad atrofida birlashishi yoki aniq maqsadli uyushgan talabalarni kelajak kasbiy faoliyatiga yo‘naltirishdan iborat bo‘lib, har bir mashg‘ulot jarayonida talabaning imkoniyati, qiziqishi va ehtiyojlariga moslashtirishni talab qiladi. Demak, “individual ta’lim muhiti” deganda, aynan bir xil maqsadli va bir-biriga yaqin bilim darajasiga ega bo‘lgan talabalar guruhi uchun pedagogik-psixologik jihatdan ijtimoiy talab darajasidagi kadrlar tayyorlashni nazarda tutadi. Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish strategiyalari talabalarning ta’lim olish madaniyati, kelajak faoliyat trayektoriyasini belgilovchi individual yondashuv asosida amalga oshiriladi, deb hisoblash mumkin.

#### **Foydanilgan adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “Kichik yoshdagi bolalarni tarbiyalash va ta’lim berish bo‘yicha ikkinchi Butunjahon” konferensiyasi ochilish marosimidagi nutqi. 2022-yil 15-noyabr. <https://president.uz/uz/lists/view/5696>

2. Abdullayeva B.S. Professionalnaya podgotovka studentov pedagogicheskogo vuza v sovremennyykh usloviyax. Professionalno-pedagogicheskaya kultura uchitelya i prepodavatelya: sodernaniye, modeli i texnologii obrazovatelnoy

deyatelnosti: materialy VII Mejdunarodnoy nauchno-prakticheskoy konferentsii (g. Belgorod, 16–17 aprelya 2019 g.) / otv. red. I.F. Isayev. – Belgorod: ID «Belgorod» NIU «BelGU», 2019. – S. 38-40. (230 s.)

3. Бочкарева О.В. Дидактические функции и возможности диалога при решении педагогических задач. / Дис. ... канд. пед. наук. – М., 1993. – 514 с.,

4. Зубачек П.Б. Подготовка будущего учителя технологии к реализации предпринимательской функции в образовательной деятельности. / Дис. ... канд. пед. наук. – Магнитогорск, 2003. – 163 с., Вербицкий А.А. Активное обучение в высшей школе: контекстный подход. – М.: Высш. шк., 1991. – 207 с., Лапчик М.П. Информатика и информационные технологии в системе общего и педагогического образования: Монография. – Омск: изд-во ОмГПУ, 1999. – 294 с.,

5. Isaqova Z.R. Milliy va umuminsoniy qadriyatlar-yoshlar ma'naviy kamolotining muhim omili. /O'zbekiston Respublikasini 2017-2021 yillarda rivojlantirishning Harakatlar strategiyasini jamiyatga tadbiq qilishda falsafa fanining o'rni va ahamiyati. Respublika ilmiy-nazariy anjuman materiallari. – Farg'ona: FarDU, 2019. – B. 78-80.

6. Кокорев И.А. Управление персоналом в рамках концепции человеческого капитала. – М.: 2002., Соколова М.И., Дементьева А.Г. Управление человеческими ресурсами: Учебник для вузов. – М.: Проспект, 2005. – С. 240.

7. Mardonov Sh.Q. Pedagog kadrlarni ta'limiy qadriyatlar asosida tayyorlash va malakasini oshirishning pedagogik asoslari. Pedagogika fanlari doktori ... diss. – Toshkent, 2006. – 302 b.,

8. Muhamedov G'.I., Xodjamqulov U.N., Toshtemirova S.A. "Pedagogik ta'lim innovation klasteri" Monografiya. – Toshkent: Universitet, 2020. – 280 b.;

9. Safarova R. Mas'ul muharrirligida "Pedagogika ensiklopediya" I jild. A-Yo. – Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2015. - B. 72. (320 b.)

10. Haydarov S.A. Tasviriy san'at asarlari vositasida «O'zbekiston tarixi» darslari samaradorligini oshirishning didaktik imkoniyatlari (tarixiy miniatyuralar misolida. Pedagogika fanlari bo'yicha falcafa doktori (PhD) dissertatsiya avtoreferati. – Namangan, 2019. – B. 18. (44 b.)